

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

**XO`JAIPOK ZIYORATGOHI VA SANATORIYSI SURXANDARYO
VILOYATI TURIZMI BRENDI.**

Elmo`minova Mohida Bobomurodovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakultetii Turizm yo`nalishi 2-kurs
talabasi

E-mail: mashinada123@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida joylashgan Xo`jaipok ziyoratgohi va sanatoriysi haqida umumiy malumot berilgan. Shuningdek Xo`jaipok shifobaxsh suvining inson organizmiga qanchalik foydaliligi hamda ushbu maskanlarning turizm sohasidagi ahamiyati haqida batafsil malumotlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Xo`jaipok ziyoratgohi, Abdurahmon Ibn Avf masjid, Xovuz qishlog`i, Bibizaynab qabri, ziyoratgoh tarixi, ma`danli suv, davolash turlari, kutubxona.

**KHOJAIPOK SHRINE AND SANATORIUM IS A TOURISM BRAND OF
SURKHANDARYA REGION.**

Annotation: This article provides general information about the Khojaipok pilgrimage and Sanatorium located in the Oltinsoy district of Surxondaryo region. Additionally, it details the benefits of Khojaipok's healing water for the human body and discusses the significance of these sites in the tourism sector.

Keywords: Khojaipok pilgrimage, Abdurahman Ibn Auf Mosque, Khovuz Village, Bibizaynab Tomb, history of the pilgrimage, mineral water, types of treatment, library.

**ХОДЖАЙПОКСКИЙ ХРАМ И САНАТОРИЙ – ТУРИСТИЧЕСКИЙ
БРЕНД СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ.**

Аннотация: В данной статье представлены общие сведения о храме-санатории Ходжаипок, расположенном в Олтинсойском районе Сурхандарьинской области. Также освещена подробная информация о полезности целебной воды Ходжаипока для организма человека и значении этих мест в сфере туризма.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Ключевые слова: святыня Ходжаипок, мечеть Абдурахмана ибн Авфа, село Хавуз, могила Бибизайнаб, история святыни, минеральная вода, виды лечения, библиотека.

Surxondaryo viloyati dam olish va davolanish turizmi uchun yetarlicha resurslarga ega hisoblanadi. Viloyatimizning Oltinsoy tumanida joylashgan Xo`jaipok ota ziyoratgohi va Xo`jaipok sanatoriysi kabi maskanlarda turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar va resurslar mavjud. Ushbu maskan suvlari shifobaxsh bo`lganligi uchun mahalliy aholi ko`p tashrif buyurishadi. Ko`plab insonlar bu joydan o`z dardlariga shifo topib ketishgan. Turizmning juda ko`p turlari mavsumga qaraydi. Ammo tibbiyot turizmi bundan mustasno. Xo`jaipok ziyoratgohi va sanatoriysi turizmدا insonlar uchun aynan tabiiy shifobaxsh maskan vazifasini bajarmoqda.

Xo`jaipok ziyoratgohi, O`zbekistonning Surxondaryo viloyatida joylashgan bo`lib, mashhur diniy va madaniy maskan hisoblanadi. Ziyoratgoh diniy mukammallikka erishishni va madaniy ildizlari bilan chuqurroq bog`lanishni istaganlar uchun asosiy manzildir. Keragatog` etagidagi bu maskanda ulkan va sirli g`or ichidan yaxtakkina zilol suv tinimsiz oqib turadi.

Xo`jaipok ziyoratgohi Payg`ambarimiz sahobalaridan biri Abdurahmon Ibn Avf sharofatlari bilan, taxminan milodiy 650-700 yillarda paydo bo`lgan. Xo`jaipok ziyoratgohidan 8 km uzoqlikda Hovuz qishlog`i joylashgan. Bu qishloqda 100 ta xonadonda taxminan 400 kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloq aholisi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanadi. Qishloq suvi kam bo`lgani uchun tog`dan oqib kelayotgan buloq suvlari bitta hovuzga yig`iladi va aholiga taqsimlab beriladi, shuning uchun qishloq nomi Hovuz deb atalgan. Hovuz qishlog`ida Abdurahmon Ibn Avfning masjidi joylashgan bo`lib, dastlab ushbu masjid 1895-yilda qishloq aholisi tomonidan qurilgan. Ammo keyinchalik masjid biroz xarob ahvolga kelib qolgan. Shu sababli mahalliy aholi tomonidan 2017 yil hashar yo`li bilan qayta ta`mirlangan va 2018 yil 2-fevralda ochilish marosimi bo`lib o`tgan. Bundan tashqari bu ziyoratgohda Qarluq Jome masjidi ham bo`lib, unda 900 yillik chinorni ko`rishingiz mumkin. Asosiy islomiy bayramlar, masalan, Ramazon hayiti va Qurbon hayiti davrida ziyoratgohda ziyoratchilar soni ko`payadi.

RIVOYAT

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Xo'jaipok ziyoratgohi Xo'jaipok qishlog'idagi Xo'jalar nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy maskan hisoblanadi. "Xo'ja" so'zi forscha obru e'tiborli kishi, sohibu faxriy, unvon degan ma'nolarni anglatadi. Markaziy Osiyoda XX asr boshiga qadar xo'jalar Xulfoi Roshidiyn (Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali), Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) ning qizlari Fotimadan bo'lgan avlodlaridan da'vo qiluvchi shaxslarning faxriy unvoni bo'lgan. Boshqa manbalarda xo'jalar arablarning fathiy yurishlariga boshchilik qilgan sarkardalar avlodlari deb hisoblanadi.

Xo'jaipok ziyoratgohida tog'ning tagidan bir necha chaqirim uzunlikda shifobaxsh suv chiqadi. Suv Tentak daryo (Oltinsoy daryo)ga quyiladi. Suvning qayerdan chiqayotganligi hanuzgacha noma'lum. Zinapoya orqali suv chiqadigan g'orga tushiladi. Bu yerda bir qabr bor. Mahalliy aholining aytishicha, ushbu qabr Xo'jaipok otaning singlisi Bibizaynabning qabridir. G'orga tushmasdan tepalikda ramziy yana bir qabr bor. Aholi orasida bu qabr Xo'jaipok ota, ya'ni Abdurahmon ibn Avfning qabridir. Tadqiqotlar natijasida, manbalarda xo'jalardan bo'lgan Xo'jaipok ismli shaxs aniqlanmagan. U kishi haqida faqat rivoyatlar mavjud. Abdurahmon ibn Avf sahoba bo'lib, islom dunyosida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) tomonidan "Ashar al-mubashshara" ya'ni hayotlik chog'ida jannatiy ekani bashorat qilingan o'n sahobadan biri bo'lgan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, sahoba Abdurahmon ibn Avf umuman bizning yurtimizga kelmagan. Demak, g'orning tepasidagi va g'orning ichidagi qabrlar ramziydir. Sahobalar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar butun respublika bo'ylab uchraydi. Abdurahmon ibn Avf nomi bilan bog'liq ramziy ziyorat ob'yektlari Angor tumanida, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyalarida ham mavjud.

Xo'jaipok ziyoratgohidagi g'ordan chiqayotgan oltingugurt suvining inson organizmi uchun foydali ekanligiga alohida to'xtalib o'tish kerak. Mutaxassislarining fikricha, g'ordagi oltingugurt suvi yigirmadan ortiq og'ir, o'tkir va yuqumli kasalliklardan forig' bo'lishga yordam beradi. Xususan shamollashga qarshi ta'sir qiladi, jarohatlangan teri va mushak to'qimalarining tez bitishini ta'minlaydi, qonda xolistrin miqdorini kamaytirish xususiyatiga ega, sulfid suvi yurak qon-tomir sistemasi faoliyatiga yaxshi ta'sirga ega, immun sistema faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, sochlar va tirnoqlarning ko'rinishini yaxshilaydi. Aniqlanishicha, suv tarkibida fosfor, oltingugurt, tuz, xlorid, sulfid, azon, temir va boshqa moddalar ham bor.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Xo`jaipok ziyoratgohi yonidan oqib o`tayotgan Xo`jaipok daryosi va hududning tabiiy iqlim sharoiti bu yerda ziyorat turizmini keng yo`lga qo`yish uchun juda qulay hisoblanadi. Ushbu maskan yoz oylarida mamlakatimiz va xorijdan muqaddas qadamjoni ziyorat qilish, dardiga davo topish uchun kelgan va mahalliy aholi tomonidan qurilgan supachalarda hatto oylab yashash, qolib ketayotgan va shifobaxsh suvdan bahra olayotganlar bilan o`ta gavjum bo`ladi. Ziyoratgoh yonidan oqib o`tadigan daryoga yaqin joyda kichgina buloq suvi chiqadi, bu suv juda tiniq va oltingugurt aralashmagan bo`lib, suvning manbayi aniq emas. Ammo xalq orasidagi gaplarga ko`ra buloqdan chiqayotgan suv Omonxona sanatoriysi suvi bilan bir xil ekan.

2023 yil 5-may kuni Surxondaryo viloyati hokimi Ulug`bek Qosimov Oltinsoy tumani hokimi Bahrom Maxmatrayemov hamrohligida Oltinsoy tumanida joylashgan tog` bag`ridagi "Xo`jaipok" ziyoratgohiga tashrif buyurdi. Viloyat hokimi Ulug`bek Qosimov ziyoratgohdagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Betartib qurilgan savdo rastalari, turizm va ziyoratga kelganlar uchun qurilgan beo`xshov supachalar o`rnida zamonaviy oshxonalar mavjud bo`lgan mehmonxonalar bunyod etish, g`ordan chiqayotgan oltingugurt suvidan foydalanish uchun zamonaviy cho`milish havzalari qurish zarurligi xususida mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Yangi bunyod etiladigan mehmonxona, avtomobillar uchun avtoturargoh qurish ishlarini jadallashtirish lozimligini alohida ta`kidladi. Bu borada Surxondaryo viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi Abdukarim Ahmedovga eng zamonaviy me`morchilik asosidagi loyihani qisqa muddatda tayyorlash bo`yicha ko`rsatma berdi.¹



¹ <https://oltinsoy.uz/uz/blog/okimlik-yangiliklari/483>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

1-rasm. Xojaipok ziyoratgohi

ХО`ЖАЙПОК SANATORIYSI

Prezidentimiz 2018 yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog`ida shifobaxsh suv manbaiga ega bo`lgan Oltinsoy tumanida barcha sharoitlarga ega dam olish va sog`lomlashtirish majmuasini barpo etish yuzasidan tegishli ko`rsatma bergandi. Shundan so`ng, amaliy harakatlar boshlanib, sanatoriy qurilishi uchun Jobu mahallasi hududidan 5 gektar yer maydoni ajratildi. Buyurtmachi etib O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining kapital qurilish boshqarmasi belgilandi, loyiha ishlari “Kasaba loyiha” mas`uliyati cheklangan jamiyati unitar korxonasi tomonidan amalga oshirildi. Besh qavatli, ko`rkam va muhtasham inshootni O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga qarashli “Kasaba qurilish ta`mir” sho`ba korxonasi bunyodkorlari tez fursatda barpo etishdi. Buning uchun O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 85 milliard so`m mablag` sarflandi.²

Sanatoriy-sog`lomlashtirish va dam olish majmuasida 200 o`ringa mo`ljallangan madaniyat saroyi, 10 ming kitob fondiga ega kutubxona, turli rangda jilolanadigan favvora ham bunyod etildi. Sanatoriyda 20 dan ortiq fizioterapevtik davolashga moslashtirilgan zamonaviy uskunalar, shuningdek, UZI, EKG va laboratoriya jihozlari o`rnatilgan. Fitobar, yopiq basseyn mavjud. Bu yerda kardiologik, nevrologik, tayanch harakat, ginekologik, stomatologik, urologik va boshqa kasalliklarga davolanish uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Majmua ishga tushishi bilan 150 ta doimiy ish o`rni yaratildi.

Majmuaning tantanali taqdimot marosimida O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, senator Qudratulla Rafiqov, Surxondaryo viloyatini sobiq hokimi To`ra Bobolov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri birinchi o`rinbosari Akmal Saidov va boshqalar mamlakatimizda aholi salomatligini saqlash, ularning munosib dam olishini tashkil etish, mavjud davolash profilaktika, sog`lomlashtirish muassasalarida barcha qulayliklarni yaratish, bu borada xorijiy ilg`or tajribalarni o`zlashtirishning ahamiyati haqida so`zladilar. Bu majmua dunyoda oltingugurtli suv bilan davolashga ixtisoslashgan beshinchi sanatoriyga aylandi. Shuni ham aytish kerakki, Xo`jaipok ma`danli shifobaxsh suvi tuman markazigacha 26 kilometr masofaga plastik quvurlar orqali olib kelindi.

Xo`jaipok sanatoriysida dam olish narxlari.

² <https://navoi.kasaba.uz/oltinsoy.html>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

1-jadval.

Xona turlari	Kishilar soni	Muddati	Narxi (so`m)
1 xonali	2 kishilik	12 kun	313 000
2 xonali	2 kishilik (lyuks)	12 kun	357 000
2 xonali	4 kishilik (kottej)	12 kun	313 000
LYUKS xona	1 kishilik	1 kun	313 000
VIP xona	1 kishilik	1 kun	357 000
Kottej	1 kishilik	1 kun	250 000

Xo`jaipok oltingugurt suvining shifobaxsh xususiyatlari:

- shamollashga qarshi ta'sir qiladi;
- jarohatlangan teri va mushak to'qimalarining tez bitishini ta'minlaydi;
- qonda xolesterin miqdorini kamaytirish xususiyatiga ega;
- sulfid suvlari yurak-qon tomir sistemasi faoliyatiga yaxshi ta'sir xususiyatiga ega;
- immun sistema faoliyatiga yaxshi ta'sir qiladi;
- sochlar va tirnoqlarning ko'rinishini yaxshilaydi.

QO`LLANILISHI

- har-xil sabablar oqibatida kelib chiqqan surunkali artritlarda, posttravmatik artritlarda;
- umurtqa pog'onasi osteoxondrozlarida;
- revmotoid artritda, deformatsiyalovchi osteoartrozda;
- surunkali ekzemaning hamma formalari;
- neyrodermatitda;
- surunkali krupivnitsada;
- ixtiozda, keratodermiyada, sklerodermiyada;
- periferik nerv kasalliklarining remissiya davrida;
- bepustlikning (trubnogo genezida), menstrual tsiklning buzilishida;
- ginekologik kasalliklarning remissiya davrida.

Xo`jaipok shifobaxsh suvidan maxsus vannalarda foydalaniladi. Vannalar xo`jaipok shifoli suvi yordamida massaj (gidromassaj) qilish yo'li bilan dam oluvchilarni davolaydi. Bemorlar kundalik ya'ni ambulator va statsionar davolanishlari mumkin.

XIZMAT TURLARI

- Kardiologik kasalliklarni davolash;

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

- Asab tizim kasalliklarini davolash;
- Tayanch harakat sistemasi kasalliklarini davolash;
- Genikologik kasalliklarini davolash;
- Teri kasalliklarini davolash;

DAVOLASH TURLARI

- Sharqo dush muolajasi;
- Vannada serovodorod suvi bilan davolash muolajasi (gidromassaj);
- Parafin muolajasi;
- Massaj muolajasi;
- Balchiq bilan davolash muolajasi;
- Elektr uyqu muolajasi;
- Magnitoterapiya muolajasi;
- Ultratovush terapiya muolajasi;
- Issiq qum muolajasi;
- Nuga best apparati muolajasi;
- Fitobarda har-xil turdagi giyohlaridan damlama va qaynatmalar damlab beriladi.

Sanatory shinam oshxona va yotoq joylar bilan ta'minlangan. Oshxonada ovqatlar buyurtma asosida tayyorlanib, parhez stollari har bir kishiga alohida tayyorlanadi. "Manaviyat va ma'rifat markazi" da barcha sharoitlar yaratilgan. Katta kontsert va majlislar zali mavjud. Sport turlaridan shaxmat-shashka, stol tennisi, voleybol maydoni, billiard xizmati, basseyn va kutubxona faoliyat ko'rsatib turibdi.

Kutubxona bir xonali shinam o'quv zali va kitob zaxirasi saqlanadigan xonadan iborat. Kutubxonada 3000 dan ortiq har xil kitoblar, 16 xildagi oynoma va ro'znomalardan, o'zbek va rus tillari hamda chet el adabiyotlari mavjud. To'rt faslga mo'ljallangan basseyn va sauna xizmatlari doimiy ishlaydi. Sanatoriyda 8 ta kottejlar mavjud. Kottej besh nafar dam oluvchi uchun mo'ljallangan bo'lib, uchta xonadan iborat. Har bir xonada televizor, konditsioner, hojatxona, dush va muzlatgichlar bor, alohida dam olib o'tiradigan xonada yumshoq divan-kreslo mavjud.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь



2-rasm. Xo`jaipok sanatoriysi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Islomov F. Surxon vohasining turizm salohiyatiga bir nazar // <https://reviyew.uz/uz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar> pdf. (03.07.2023)
2. Surxondaryo viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi ma'lumoti.
3. [youtube.com/c/xushnudbekxudoyberdiyev](https://www.youtube.com/c/xushnudbekxudoyberdiyev)
4. IQRO JURNALI / 2023
5. https://digital.uz/pages/decrees_and_decisions_of_the_president/
6. <https://xs.uz/uz/post/olinsojda-khozhaipok-sanatorij-sog'lomlashtirish-va-dam-olish-mazmumasi-foydalanishga-topshirildi>